SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ
UO'K: 811.512.133'373.22:524.3
ORCID:0009-0000-9770-0748
QURBONOVA GAVHAR XURRAMOVNA,
Termiz davlat pedagogika instituti
f.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi
E-mail: qurbonovagavhar1@gmail.com

AYRIM LEKSEMALARNI ONIMLASHTIRISH ORQALI HOSIL QILINGAN ASTRONIMLAR

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada astronimlar borasida o'zbek va jahon tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar, ularning nomlanish xususiyatlari, lug'aviy-ma'noviy guruhlanishi lingvistik jihatdan yoritilgan. Unda burj nomlarining turli tilllardagi nomlanishlari qiyosiy yoritilgan. Va astronimlarni nomlashda hayvon, qush, hasharot nomlarining faol qo'llanishi, astronimlarda arab, fors tillarining ta'siri masalalari yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Astronimlar, nominativlik, burj nomlari, yulduz turkumlari, kosmonim, transpozitsiya.*

АСТРОНИМЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ ПОСРЕДСТВОМ ОНИМИЗАЦИИ ОТДЕЛЬНЫХ ЛЕКСЕМ.

АННОТАЦИЯ. В данной статье с лингвистической точки зрения освещены исследования, проведённые в узбекском и мировом языкознании в области астрономов, их особенности наименования, а также лексико-семантическая классификация. В работе сравнительно рассмотрены названия зодиакальных созвездий в разных языках. Кроме того, раскрыты вопросы активного использования названий животных, птиц и насекомых при формировании астрономов, а также влияние арабского и персидского языков на систему астрономических наименований.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *астронимы, номинативность, названия созвездий, звездные скопления, космоним, транспозиция.*

ASTRONYMS FORMED THROUGH THE ONYMIZATION OF CERTAIN LEXEMES

ABSTRACT. In this article, linguistic research conducted in Uzbek and world linguistics on astronyms, their naming characteristics, and lexical-semantic classification is analyzed. The study provides a comparative overview of the names of zodiac constellations in different languages. It also highlights the active use of animal, bird, and insect names in the formation of astronyms, as well as the influence of Arabic and Persian languages on astronymic naming.

KEYWORDS: *Astronyms, nominative, zodiac names, constellations, cosmonym, transposition*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Qadimgi Sharq odamlari samoviy yoritgichlarga qarab manzillar uchun mo'ljal olishda osmonning yorug' yulduzlarini ma'lum bir to'da-guruhlarga ajratib, bu guruhlarni yulduz turkumlari deb ularga turli nomlar berishgan. Ularni nomlashda yorug'ligi, jamlanib turgandagi hosil qilgan shakl o'xshashligi, osmonda ko'rinish vaqti kabi jihatlariga tayangan tarzda nom berishgan. Lug'atlardagi astronomik nomlarga e'tibor bersak, bir qancha osmon jismlarining nomlanishlari jonivor, parranda va hayvon nomlari bilan bog'liq holda atalganligiga guvoh bo'lamiz: Ilon (yulduz turkumi), Qo'y (Hamal y.t.), Qush yo'li, Kaltakesak (y.t.), Katta it (y.t), Katta ayiq, Kentavr (y.t.), Kit(y.t.), Kichik it (y.t), Kichik asad (y.t.), Kichik ot (y.t.) Pegas (Qanotli ot. y.t.), Savr (Ho'kiz. y.t.), Burgut va boshqalar [1:92].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunos olimlari tomonidan ham bir nechta tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, Q.Karimov, H.Dadaboyev, Sh.Bobojonov, Sh.Yoqubov, I.Yoqubov, T.Matyoqubova, Z.Hamidov, Sh.Egamova, Z.Yunusova, I.Bakirova, A.Primov kabi olim va tadqiqotchilar olib borgan ishlarda astronim va kosmonimlarning sistemaviy, terminologik, stilistik va leksik tomonlari tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu doirasida rus tilshunosligidagi tadqiqotlarga qaraganda milliy tilshunosligimizdagi ishlar ko'lami anchayin kam. Olib borilgan ishlarda ham rus tilidagi tadqiqot va materiallar asos bo'lib xizmat qilganligi seziladi.

Rus lingvistikasida hamda boshqa tillarda astronomiya va kosmonimiyaga oid masalalarni qiyosiy tahlil qilish Y. Karpenko, S.M. Podvigina, Y.P. Panasova, G.Y. Gulyaeva, O.V. Chyokha, M.E. Rut, O.N. Bil, Ch.O. Vladimirovna, L.F. Fomina, M.A. Sidorenko, D. Chunyan va A.A. Bakirova kabi olim va tadqiqotchilarning dissertatsiyalari, monografiyalari hamda maqolalarida aks etgan.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan XXI asr boshlarida sezilarli darajada faollashgan. Bizning fikrimizcha, bunga quyidagi omillar sabab bo'lgan: birinchidan, kognitiv fanlarning rivojlanishi natijasida inson markaziy (antroposentrik) tabiatni atrof-muhitda kuzatish va o'xshash xususiyatlarni qayd etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda; ikkinchidan, lingvistikada antroposentrik yondashuvning kuchayishi natijasida mavjud ilmiy muammolarni tilshunoslik va madaniyatshunoslik (lingvomadaniy) nuqtayi nazaridan o'rganishga ehtiyoj kuchaydi.

Rus tilshunosligidan tashqari, ingliz olimlari – Sara Adored Names, Mark Aleksandr va Richard Allenlar tomonidan ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu ishlarda asosan osmon jismlarining nomlari va ularning ma'nolariga e'tibor qaratilgan. Masalan, Richard Allenning tadqiqotlarida asosan yulduz turkumlari, burj belgilarining nomlari va ularning ma'nolari yoritilgan.

Turkologiya sohasining bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida X. Abishev, Y. Nemet, V.A. Nikonov, V.N.Bogolyubov, N.X. Maksyutova, L.S. Levitskaya, Y.D. Karajayev, H. Dadaboyev, E.X. Qadirova va X.X. Kuzmina kabi ko'plab olimlar osmon jismlariga oid tilshunoslik jihatlarini tahlil etuvchi tadqiqotlar olib borganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

BURJ (ar.برج– minora; qal'a; yulduzlar turkumi) – Quyoshning yillik ko'rinma harakati doirasidagi o'n ikkita yulduzlar turkumi; ularning har birini (Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv) (O'TIL, I, 644) nomlashda asosan hayvon nomlari yetakchi ekanini ko'ramiz.

Zodiak yulduz turkumlari (zoo – "hayvon". Ular 12 ta)

1. Hamal (ar. حمل– qo'y qo'zichoq). O'n ikki burjning biri, Hut va Savr burjlari orasida joylashgan (O'TIL, II, 304). "Bu burjni qo'y shaklida tasavvur qilishganligi uchun "Hamal" yoki "Qo'zi" deb nomlashgan. Rus tilida "Овец". Arablarda "Kabsh" deb ham yuritiladi. "Kabsh" esa qo'chqordir" [2:90].

2. Savr (ar. ثور – buqa, ho'kiz). O'n ikki burjning biri, Hamal va Javzo burjlari orasida joylashgan (O'TIL, IV, 569). "Savr burjining surati buqa shaklida tasvirlanib, qadimiy turkiy tilda "Uy" yoki "Ud" ham deb nomlashgan. Buning ma'nosi qoramoldir. Navoiy, Bobur kabi ijodkorlar ho'kiz, buqa, qoramol o'rnida "Uy" leksemasini ishlatganlar. Rus tilida Savrni"Телец" deb atashadi" [2:90].

3. Javzo (ar. جوزا – egizaklar). O'n ikki burjning biri, Saraton va Savr burjlari orasida joylashgan (O'TIL, II, 634). "Bu burjning suvrati egizak shaklida, lekin bu so'zning lug'aviy ma'nosi beli oq-qora qo'ydir. Bu kabi qo'ylar boshqa qo'ylar orasidan farqlanib turadi. Javzo yana "Tav'amon" deyilgan o'rinlari bor. "Tav'amon"ning ma'nosi egizak bo'lib, Y.X.Hojib bu burjni "Erandiz" tarzida keltirgan. Rus tilida "Близнецы" – egizaklardir" [2:90].

4. Saraton (ar. سرطان - qisqichbaqa). O'n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari orasida joylashgan (O'TIL, IV, 536). "Bu burj qisqichbaqa shakli bo'lib, uning qadimgi nomi "Qo'chiq". Rus tilida esa "Рак", ya'ni qisqichbaqadir" [2:91].

5. Asad (ar. اسد – arslon, she'r). O'n ikki burjning biri, Saraton va Sunbula burjlari orasida joylashgan (O'TIL, I, 150). Asadning surati arslon ko'rinishida. Ruschasi "Лев" ham arslon deganidir. Y.X.Hojib ham bu burjni "Arslon" deb keltirgan" [2:91].

6. Sunbula (ar. سنبله – boshoq). O'n ikki burjning biri, Saraton va Mezon burjlari orasida joylashgan (O'TIL, IV, 759). Sunbulaning surati qo'liga bug'doy boshog'ini ushlagan qiz ko'rinishida. Y.X.Hojibda bu burj "Bug'doy boshog'i" tarzida uchraydi. Rus tilida "Дева" deb nomlanib, ma'nosi "qiz"dir. Arab tilidagi "Azro" degan

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

leksema ham Sumbulaga nisbatan qo'llaniladi. "Azro" so'zining ma'nosi ham qizdir" [2:91].

7. Mezon (ar. ميزان – o'lchov, tarozi). O'n ikki burjning biri, Savr va Saraton burjlari orasida joylashgan (O'TIL, III, 184). "Surati tarozi ko'rinishida. Rus tilida esa "Весы", ya'ni tarozidir" [2:91]. Y.X.Hojib bu burjni "Ulgu", "Erantiz" deb atagan [2:91].

8. Aqrab (ar. عقرب– chayon) O'n ikki burjning biri, Mezon va Qavs burjlari orasida joylashgan (O'TIL, I, 128). "Surati chayon shaklida. Rus tilida "Скорпион" deb nomlanib, ma'nosi chayondir" [2:91]. Y.X.Hojib ham bu burjni fonetik o'zgarishli variant bilan"Chazan" ya'ni chayon deb nomlagan [3:192].

9. Qavs (ar. قوس – O'q-yoy burji). O'n ikki burjning biri, Aqrab va Jadiy burjlari orasida joylashgan (O'TIL, IV, 99). Bu burjning surati qo'liga kamon ushlagan, belidan pasti ot shaklidagi odamdir. ""Qavs" ning ma'nosi yoydir. Yusuf xos Hojib ham bu burjni "Yo" deb atagan. Rus tilida "Стрелец" bo'lib, ma'nosi o'q otuvchidir. Arabchada "Romiy" degan so'z ham ishlatiladi. Bu ham otuvchidir" [2:91].

10. Jadiy (ar. جدى – echki bolasi). O'n ikki burjning biri, Dalv va Qavs burjlari orasida joylashgan (O'TIL, II, 612). "Bu burjning surati belidan quyi qismi baliq dumli shoxi bor echki ko'rinishidadar. Yusuf Xos Hojib "O'g'laq", ya'ni uloq deb atagan. Rus tilida esa "Козерог" deb nomlanib, echki ma'nosini beradi" [2:91].

11. Dalv (ar. دلو – chelak, mesh). O'n ikki burjning biri, Jady va Hut burjlari orasida joylashgan (O'TIL, I, 753). "Dalv" ning ma'nosi qovg'a, ya'ni quduqdan suv chiqaradigan ko'n (teri)dan ishlangan meshdir. Suvrati qo'lidagi idishdan suv to'kib turgan odam shaklidadir. Yusuf Xos Hojib bu burjni "Ko'nak" degan. Rus tilida "Водолей", ya'ni suv to'kuvchidir" [2:91].

12. Hut (ar. حوت – katta nahang baliq, kit). O'n ikki burjning biri, Dalv va Hamal burjlari orasida joylashgan (O'TIL, II, 452). "Katta baliqni, yoki kitni "Hut" deb aytishadi. Surati dumlari bir-biriga ip bilan o'ralgan baliqlar shaklidadir. Y.X.Hojib bu burjni "Baliq" degan. Rus tilida "Рыбы" (baliqlar) deganidir" [2:91]. Shunday misralar uchraydi:

Quyosh qaytdi yana kelib o'rniga
Baliq quyrug'idan Qo'zi burniga (Y.X.Hojib. "Qutadg'u bilig". – B. 14.).

"Quyosh kecha va kunduzning tenglik nuqtasi, ya'ni olam ekvatoriga keldi va Baliq, ya'ni Hut burjidan Qo'zi – Hamal yulduz turkumiga tomon o'tdi" [4:32].

2.1-jadval

Yulduz turkumlari (burj)larning hozirgi o'zbek, tarixiy(eski turkiy), arab, rus, fors-tojik, hamda ingliz tilidagi nomlanishlarining qiyosiy jadvali

№	Kalendar oylar bilan bog'liqligi	Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi nomlar	Tarixiy (eski turkiy) nomlar (DLT va Qutadg'u bilig manbalari asosida)	Arabcha nomlar	Rus tilidagi nomlar	Fors-tojik tilidagi nomlanishlar	Ingliz tilidagi nomlar
1.	Mart	Qo'chqor	Qo'zi	حمل (Hamal) // Kabsh	Овец	Barre	Aries
2.	Aprel	Taros (Buqa, buzoq)	Ud, Uy	روث (Savr)	Телец	Gov	Taurus
3.	May	Egizaklar	Tav'amon, Erandiz	ازوج (Javzo)	Близнецы	Dupaykar	Gemini
4.	Iyun	Qisqichbaqa	Qo'chiq, chazan	ناطرس (Saraton)	Рак	Xarcheng	Cancer
5.	Iyul	Arslon	Arslon	اسد (Asad)	Лев	Sher	Leo
6.	Avgust	Boshoq	Bug'doy boshog'i	هلبنس (Sunbula)	Дева	Xosha	Virgo
7.	Sentabr	Tarozi	Ülgü, erandiz	ميزان (Mezon)	Весы	Tarozu	Libra
8.	Oktabr	Chayon	Chazan	عقرب (Aqrab)	Скорпион	Gajdum	Scorpion
9.	Noyabr	Yoy (o'qotar)	Yo	قوس (Qavs), Romiy	Стрелец	Kamon	Sagittarius
10.	Dekabr	Tog' echkisi	O'g'laq	جدى (Jadiy)	Козерог	Buzg'ola	Capricorn
11.	Yanvar	Qovg'a	Könək	دلو (Dalv)	Водолей	Do'l	Aquarius
12.	Fevral	Baliq	Baliq	حوت (Hut)	Рыбы	Mohiy	Pisces

Astronomiyada qo'llanadigan nomlarni birma-bir ko'rib chiqsak, ularning semantik strukturalarini yuqoridagilardan biroz farqli ravishda yana quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin. Lekin bu bo'linish asosan dialekt materiallari bilan belgilanadi va ular orqali aniqlanadi:

1) Aholining uyda, ro'zg'orda ishlatadigan buyum va narsalari, qurol-yarog' nomlari asosida shakllangan astronimlar: O'q (y.t.), Chelak, Temir qoziq, Elak (ruslarda Pleada deb nomlangan yulduz turkumi xalq orasida Elak yulduzi deb ham ataladi. Avvalgi yozma adabiyotlarda u Hulkar yulduzi sifatida ishlatilgan), bigizlar(Ajdarhoning yulduzlari), Cho'mich, Qalqon(y.t.), Sayf (qilich), Satil (Dalv chelagi, Dalv H si), Somon yo'li, Tobut, Kosa (y.t);

2) eponimlarga o'tgan yoki eponimik yo'l bilan hosil qilingan nomlar: Hulkar – (ar. Surayyo). Savr yulduzlar turkumidagi bir guruh yulduzlar nomi (O'TIL, IV, 768)); Banot (Qizlar) – Kichik ayiqning yulduzlari; Mushtariy (Yupiter); Gidra(y.t.); Sumbula, Zuhra yulduzi [1:92]. Qirg'izlarda Cho'lpan, qozoqlarda Sholpan. Bu yulduzlarning etimologiyasi (Vega, Zuhra, Sulpan) "yo'l ko'rsatuvchi yorug' yulduz" ma'nosining qisqartmasidir. Venera rus tilida sevgi ma'budasi sifatida qaralgan [5:143]; Persey, Persion (yig'loqi Sirius), Ulug'bek yulduzi;

3) vaqt ma'nosi bilan aloqador nomlar: Shafaq yulduzi (Venera, Zuhra), Tong yulduzi;

4) turli rang ma'nolari bilan bog'liq nomlanishlar: Qizil Yulduz, Oltin Qoziq, Mars (Qizil sayyora) va boshqalar;

5) samo va undagi joyga ko'ra atalgan nomlar: Shimoliy eshak, Qutb yulduzi, Shimoliy toj – "Gado kosasi" (y.t.);

6) raqamga ko'ra shakllangan nomlar: Yetti qaroqchi (Yetegan, Jedegan);

7) qarindoshlik atamalaridan va kasb-hunar nomlaridan: Javzo (egizaklar), Qavs (o'qchi. y.t.), Aravakash (y.t), Ho'kizboqar (y.t),), Orion (Ovchi [6:84]) – yulduz t, Uchuvchi Salib;

8) shakllar va harflar bilan nomlangan astronimlar: Bu kabi nomlar keying vaqtlarda paydo bo'lgan Yevropa astronomiyasidan kalkalash yo'li orqali olingan nominatsiya mahsulidir: Uchburchak (y.t.), Katta ayiqning α,β,δ,γ si va boshqalar. Bu kabi tasnif A.Primovda ham uchraydi [7:48], lekin olim bizdan farqli ravishda kosmonimlarni ancha keng planda lug'aviy-ma'noviy guruhlagan.

Bundan farqli o'laroq fanda kosmonimlarning transpozitsiya usulida hosil bo'lishi to'g'risida fikrlar mavjud bo'lib, bu esa ikki usulda, ya'ni kosmonimlarning kosmonim hisoblanmaydigan atoqli otlarga o'tishi (Surayyo, Xurshida, Sunbula kabi qizlarning otlari), kosmonim hisoblanmagan so'zlarning kosmonimlarga o'tishi (Temir qoziq yulduzi, Yetti qaroqchi yulduz turkumi) asosida hosil qilingan nomlar ham keltiriladi [8:94].

XULOSA. Astronimlar lingvomadaniy tadqiqotlar orasida qimmatli materialdir, sababi bu nomlar onomastik nomlanishlarning milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Har bir nomning orqasida turkiy xalqlarga yaxshi tanish qadimiy afsonalar bor. Ularning aksariyati obyektlarni so'zma-so'z nomlamaydi, balki o'xshashlikka asoslanadi, majoziy ma'no-metaforizatsiya yordamida shakllangan. Shu o'rinda osmon jismlari nomlarining aksariyati obrazli nominatsiya natijasi ekanligi ravshanlashadi: Oltin qoziq, Cho'mich yulduzi, Yetti qaroqchi, Somon yo'li kabi. O'zbek tilidagi fazoviy nomlarda asosan fors, arab tilidan kirib kelgan astronimlar ustunlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Jalolov G'. O'zbekcha – ruscha – arabcha – inglizcha astronomik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2000. – 92 b.

2.Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш Гвардия, 1987. – Б. 90.

3.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (To'xliyev B. tabdili asosida). – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – B. 193.

4.Нарзиқулов А. Деҳқон, боғбон ва чорвадор тақвими. – Тошкент, 1991. – Б. 31-32.

5.Абдуллина Г.Р., Гайнуллина Г.Д. Наименования небесных тел (на материале башкирского языка) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – Тамбов, 2014. – № 20. – С. 1141–1145. – URL: http://e-koncept.ru/2014/54492.htm.

6.Kadash T.V. Astronomiya va koinot (Tarjimon Kamilov U.). – Toshkent: Davr, 2013. – B. 84.

7.Примов А. Ўзбек тили космонимларининг луғавий-маъновий гуруҳлари // Филологическая исследование. – Ташкент, 2002. – С. 47-49.

8.Примов А. Космонимлардаги баъзи номланиш тамойилларига доир // Филологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2002. – Б. 93-95.

9.Qurbonova G. Olamning milliy lisoniy manzarasida astronimlar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2023. – №. 5. – B. 158-159.